

Imomqulixon



Imomqulixon ibn Dinmuhammadxon

(1589-1650)

(1611-1642)

O'zbek davlatchiligi tizimidagi **ashtarxoniylar** sulolasini boshqargan Buxoro xonligi hukmdori. Valimuhammadxon Erondan olib kelgan qo'shinga qarshi Buxoro xalqining kurashiga rahbarlik qilib qozoqlar yordamida eronliklarni tor-mor keltirgan. So'ngra 1611 yil Sirdaryoning quyi oqimidagi hududlarga yurish qilib isyonkor, qozoq, qalmoq, qoraqalpoqlarni bo'ysuntirgan. Imomqulixon 1613 yil Toshkentni egallab o'g'li *Iskandarni* hokim etib tayinlagan. Ammo, shahar aholisi uning nojo'ya xatti harakatlaridan norozi bo'lib isyon ko'tarib Iskandarni o'ldirgan. Bundan g'azablangan *Imomqulixon* Buxoro, Balx va Badaxshon viloyatlaridan qo'shin yig'ib kelib, Toshkent aholisini qirg'in qilgan (Toshkent qirg'ini). Buxoro xonligida ichki nizolar juda kuchli bo'lgan. Toshkent, Balx, Samarqand viloyatlari ochiqdan-ochiq markaziy hokimiyatga qarsh siyosat yurgizishardi. Imomqulixon bu kurashlarga barham bergan. U darveshlarni qo'llab quvvatlagan, atrofiga olimlar va shoirlarni to'plagan, o'zi ham she'rlar yozgan. O'sha zamon manbalarining birida shunday yozilgan „ *Imomqulixon nochorlar ishini yengillashtirdi, arz bilan kelganlarni qaytarmadi, uning zamonida na kambag'al va na bechora qolmagandi. Chiqargan buyruqlari ijrosi borasida amaldorlariga qattiq turdi, qorong'u tushishi bilan oddiy kiyim kiyib, vaziri va qo'rchi bilan bozorlari- mahallalarni aylanib oddiy xalqning haqiqiy turmush ahvolidan bohabar bo'lib turardi. Buni xalq bilgani uchun ham Imomqulixon hukmronligi yillari mamlakatda biron marta ham isyon ko'tarilmagan*”. Ko'chmanchilar bilan olib borilgan muvaffaqiyatli janglar natijasida u 30 yildan ortiq hukmronlik qilgan.

Bu davrda mamlakatda markaziy davlat hokimiyati kuchaygan. Hindiston, Eron va Rossiya bilan

elchilik munosabatlarini o'rnatgan. Rossiyaning josus elchisi *I.D.Xoxlov* 1620-22 yillarda Buxoroda bo'lgan. Imomqulixon ko'r bo'lib qolgach, 1642 yilda taxtni ukasi Nadrmuhammadga topshirgan. O'zi hajga ketib umrining oxirigacha o'sha yerda bo'lgan. U Madina shahrida chorbog', Makkadagi Ka'baga kiraverish darvozalaridan biri ostonasi uchun oltin va kumush tutqichli yog'och zina qurdirgan. Buxoroda Imomqulixon hukmronligining oqibati shu bo'ldiki, uning davrida xon hokimiyati nisbatan mustahkamlandi. Nufuzli amirlar va zodagonlar ham xon hokimiyatiga nisbatan dushmanlik munosabatlarini to'xtatib turishga majbur bo'ldilar. Biroq, shunga qaramay, Imomqulixon mamlakatdagi siyosiy tarqoqlikning oldini ololmadi.

2023-11-02 16:55:12